

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.Fal.60.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

RAVSHANOVA GULHAYO ABDUQAHHOROVNA

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI MA’NAVIY-MA’RIFIY
FAOLIYATINING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
philosophical sciences**

Ravshanova Gulhayo Abduqahhorovna

Fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining milliy va
umuminsoniy tamoyillari 3

Равшанова Гулхаё Абдукаххаровна

Национальные и общечеловеческие принципы духовно-просветительской
деятельности институтов гражданского общества..... 25

Ravshanova Gulhayo Abdukahhorovna

National and universal principles of spiritual and educational activity of civil society
institutions..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.Fal.60.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

RAVSHANOVA GULHAYO ABDUQAHHOROVNA

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI MA’NAVIY-MA’RIFIY
FAOLIYATINING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fal1073 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Qiyom Normirzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yunusov Kamoliddin Abzalovich
siyosiy fanlar doktori, dotsent

Boytemirova Zarina Dadajonovna
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.Fal.60.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 24 " may soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel. 0(374) 223-88-30, faks: 0(374) 223-88-30; e-mail: agsu_info@edu.uz).

2024 Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2025-yil 10 " may raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel.: 0(374)223-88-30).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "10" may dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



F.X.Yuldasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlar doktori, professor

X.N.Xolmirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A.Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi zamonaviy falsafiy tadqiqotlar yoʻnalishida fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy, iqtisodiy, huquqiy jihatlari bilan bir qatorda maʼnaviy va maʼrifiy taraqqiyot mezonlari, bu boradagi samarali faoliyat tamoyillarini chuqur ilmiy oʻrganish bilan bogʻliq mavzularga eʼtibor ortib bormoqda. Global darajaga koʻtarilgan ijtimoiy, axloqiy inqirozlarning insoniyatga boʻlgan salbiy taʼsirining oldini olish vositalari, bunday inqirozli holatlarga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlarning yangicha tajriba yoʻllarini oʻzlashtirish orqali fuqarolik jamiyati institutlari maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda fuqarolik jamiyatini har tomonlama ilmiy tadqiq etish masalalariga eʼtibor tobora kuchayib bormoqda. Unga doir tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy taʼlim muassasalarida, jumladan, Yel universiteti, Garvard, Kolumbiya universitetlari antropologiya boʻlimlari (AQSh), Gumbold universitetining Yevropa etnologiyasi instituti (Germaniya), Sarbonna universiteti, Parij Ijtimoiy fanlar Oliy maktabi (EHESS, Frantsiya), Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS, Angliya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Falsafa hamda Sotsiologiya institutlari (Rossiya) va boshqa shu kabi ilmiy markazlarda olib borilmoqda.¹ Ularning tadqiqotlarida fuqarolik jamiyati institutlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, maʼnaviy va maʼrifiy sohalaridagi faoliyatini tadqiq etish masalalariga katta eʼtibor berilgan.

Oʻzbekistonda bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatida milliy va umuminsoniy tamoyillar dialektikasining qanday namoyon boʻlayotgani, davlat va nodavlat fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy hamkorligining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan mexnizmlarni takomillashtirishga doir tadqiqotlarning nihoyatda muhim mazmun-mohiyat kasb etayotganligid shubhasiz. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, demokratik islohotlarning asosiy yoʻnalishi sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish strategik maqsad qilib belgilab olindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarning hozirgi yangi bosqichida esa, fuqarolik jamiyati institutlari maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatining fuqarolik jamiyati taraqqiyotiga taʼsirini oʻrganish, mazkur institutlarning “inson-jamiyat-davlat” konsepsiyasini amalga oshirishdagi oʻrni va vazifalarini tizimli ravishda tadqiq etish, milliy va umuminsoniy tamoyillarning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida namoyon boʻlishi va uning oʻziga xos xususiyatlarini ochib berish zaruriyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu maʼnoda, mazkur dissertatsiyada jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida islohotlar va yangilanishlar jarayonini yanada jadallashtirishga xizmat qilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi” asari, “Yangi Oʻzbekistonning 2022 – 2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi

¹ www.harvard.edu; www.yale.edu; www.columbia.edu; iea-ras.ru; www.iaaw.hu-berlin.de; www.ehess.fr/fr; books.google.com; knigi.link/etnologiya-etnografiya; www.dissercat.com.

to'g'risida"gi Farmonlarining² muhim xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan. Ayni paytda, Prezidentning 2017-yil 30-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash to'g'risida"gi Qarorlari va Farmonlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jamiyat va ma'naviyat, ma'naviy taraqqiyot strategiyasi va inson omili, madaniy-ma'rifiy jarayonlar, millat va fuqarolarning ehtiyojlari, manfaatlari va talablari bilan bog'liq fikrlar ko'plab Sharq va G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkuri namoyondalari ijodiy merosida o'z aksini topgan. Bizga zamondosh olimlar va mutaxassislarning asarlari va dissertatsiyalarida ushbu soha bilan aloqador ko'plab mavzu va muammolarning o'rganilganlik darajasi haqidagi mulohazalar va ma'lumotlar ana shu manbalarga murojaat qilishdan boshlanishi bejiz emas.

Shuningdek, Sharq va Yevropa, Markaziy Osiyo va jahon falsafiy tafakkurining muammoga daxldor ilmiy-nazariy konsepsiyalari, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, ular tomonidan yaratilgan asarlar ham ushbu mavzuni yoritishda muhim manba sifatida xizmat qilgani shubhasiz. Ayni paytda, tadqiqotni amalga oshirishda jamiyat ma'naviy taraqqiyot tamoyillarining mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan ta'limotlar va nazariyalardan, hozirgi zamondagi ushbu sohaning nazariy va amaliy jihatlari bilan shug'ullanuvchi etuk olimlar va yirik mutaxassislarning asarlari va ilmiy xulosalaridan foydalanildi.

Ma'lumki, Sharq mamlakatlarida "ma'naviyat" tushunchasi ko'proq din va axloq majmui sifatida idrok etiladi va bu boradagi jabhada ushbu omillarning o'rni va roli ustuvorlik qiladi, deb qaraladi. Ammo G'arb davlatlarida esa demokratiya tamoyillari "ma'naviyat" uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan, mavzuimiz yo'nalishida, ayniqsa, YUNESKOning fan va texnikaning axloqiy muammolari bo'yicha Komissiyasi shafeligida jahon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Kosmosni o'rganish axloq Kodeksi", "Bioetikaning umumiy normalari to'g'risida Deklaratsiya", "Olimlar axloq Kodeksi", "Atrof-muhit axloq Kodeksi" kabilar zamonaviy jamiyatlarda ma'naviy rivojlanish va axloqiy taraqqiyot tamoyillari belgilab berilgan muhim xalqaro hujjatlar hisoblanadi³.

Xalqaro miqyosda Moskva davlat universiteti va Novosibirsk universitetida fuqarolik jamiyati barpo etishning federativ xususiyatlari va regionlarning o'ziga

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022, 6-son, 73-modda; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

³ Қаҳҳорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалсафа фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: ЎЗМУ, 2012. – Б. 4-5.

xos jihatlariga doir mavzularga alohida e'tibor qaratilgan. Kiev davlat universiteti tadqiqotchilari ko'proq bu yo'nalishdagi Yevropa mamlakatlari tajribasiga ustuvor ahamiyat berishadi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo'shni davlatlardagi ilm va ta'lim muassasalarida fuqarolik jamiyati qurishning ma'naviy, ma'rifiy omillarini o'rganishda sharq xalqlari qadriyatlari va milliy mentalitet masalalariga doir mavzular ko'proq tadqiq qilingan.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda ma'naviy taraqqiyot sohalari, bu jabhaning amaliyoti va uning tarmoqlariga xos ma'rifiy faoliyatni samarali tashkil qilish masalalari davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz", "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak", "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kabi asarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, shu yo'nalishdagi qarorlari va farmonlari, Prezidentning joylardagi chiqishlari va ma'ruzalarida o'rganilayotgan mavzuga oid g'oya va konsepsiyalar tadqiqotimiz uchun ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari, ma'ruza va chiqishlari, mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma'naviy omillarga alohida ahamiyat qaratish, ular asosida tarbiyalangan ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish, ularda xalqimizning ezgu intilishlariga sodiqlikni shakllantirish haqidagi fikr-mulohazalari tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, 2017-yil 30-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi hamda 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash to'g'risida" Qarorlari dissertatsiyamizning eng muhim nazariy asosi va tayanch metodologik hujjatlaridir.

Jamiyat ma'naviy taraqqiyot strategiyasining asosi bo'lgan ma'naviyat sohasi bilan bog'liq tushunchalar va atamalarni o'rganishga qaratilgan asarlar orasida O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan 2022-yilda chop etilgan "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati"⁴ zaruriy manbalardan biridir.

Ushbu yo'nalishda ba'zi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham biz tanlagan mavzuga aloqador ayrim jihatlar tadqiq etilgan. Bu borada mavzuning ijtimoiy-falsafiy tahlili nuqtai nazaridan X.Shayxovanning "Ma'naviyat manzillari", I.Ergashev, X.Xudoyberdiyev va A.Qahramonovlarning "O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li va ma'naviy jarayonlar", Q.Nazarovning "Jahon falsafasi qomusi", "Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi", N.Jo'rayevning "Yangilanishlar konsepsiyasi: yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti", A.Mo'minovning "Milliy siyosat va ma'naviy sohadagi islohotlar", "O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari", A.O'tamurodovning "Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasi",

⁴ Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2022. – 816 бет.

T.Alimardonovning “Siyosat va axloq”, V.Qo‘chqorovning “Milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar” kabi monografiyalari va kitoblari muhimdir⁵.

Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yangi O‘zbekistonga xos ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyot tamoyillarining fuqarolik jamiyati institutlariga ta’siri, mazkur ijtimoiy omilni oshirish bilan bog‘liq masalalarini echish yo‘llari va usullariga bag‘ishlangan muammolar haligacha maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa o‘z navbatida, tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligi va uni amalga oshirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq (2021-yil 30-avgustdagi №1-sonli qarori asosida tasdiqlangan) “Ma‘naviy tarbiyaning metodologik asoslari” (2021-2025) mavzusidagi tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekistonda shakllangan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati va ularning ma‘naviy-ma‘rifiy tamoyillari hamda milliy va umuminsoniy jihatlarini har tomonlama ilmiy-falsafiy tadqiq etish, shu asosda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

“fuqarolik jamiyati”, “fuqarolik jamiyati instituti” va “ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat” tushunchalarini ilmiy tadqiqot obuekti sifatida tahlil qilish, ushbu tushunchani falsafiy fanlar nuqtai nazaridan ta’riflash va tavsiflash orqali ularning mazmun-mohiyatini oshib berish va o‘ziga xos jihatlarining umummetodologik asoslarini tahlil qilish;

jamiyat ma‘naviy taraqqiyot tamoyillariga ta’sir ko‘rsatgan fuqarolik jamiyati institutlariga xos faoliyat va ijtimoiy jarayonlar tadrijini tahlil qilish asosida bu soha bilan bog‘liq tub o‘zgarishlar va yangilanishlarning umumiy qonuniyatlarini hamda uning mamlakatimizga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida ma‘naviy taraqqiyot omillari va tamoyillari bilan bog‘liq faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari va takomillashib borish dialektikasini tahlil qilish orqali ushbu jarayonning samarasini yanada oshirish yo‘llari va imkoniyatlarini ko‘rsatib berish;

bugungi kunda O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga qaratilgan tub islohotlar va o‘zgarishlar jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ma‘naviy tamoyillar ta’sirchanligini oshirishning samarali yo‘nalishlariga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ektini Yangi O‘zbekistonda shakllangan fuqarolik jamiyati institutlarining ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi faoliyati hamda ushbu yo‘nalishda mamlakatimizdagi islohotlar jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatining milliy va umuminsoniy tamoyillari amaliyotiga xos xususiyatlarni ilmiy o‘rganishdan iborat.

⁵ Bu asarlar to‘g‘risida “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da to‘liq ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, retrospektiv va tizimli tahlil, qiyoslash va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqarolik jamiyati institutlarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati Yangi O'zbekistonda "inson-jamiyat-davlat" konsepsiyasini amalga oshirishning eng muhim omili ekanligi asoslab berilgan;

davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari ma'naviy-ma'rifiy sohada faoliyat yurituvchi fuqarolik jamiyati institutlari misolida yoritib berilgan;

jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida fuqarolar ongida yangi dunyoqarash tizimining shakllanishiga fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy-ma'rifiy faoliyati ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

bugungi kunda O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ma'naviy tamoyillari ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan konstruktiv taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tadqiqotda o'z aksini topgan nazariy xulosalar va fikr-mulohazalar hozirgi davrda "fuqarolik jamiyati", "fuqarolik jamiyati instituti" va "ma'naviy-ma'rifiy faoliyat" tushunchalarining mazmun-mohiyatini yanada kengroq o'rganish, bu soha bilan bog'liq o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonining umumiy qonuniyatlari hamda uning mamlakatimizga xos namoyon bo'lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy-amaliy jihatdan to'g'ri anglash yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan;

tadqiqot jarayonida o'rganilgan masalalarning echimlaridan jamiyat ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash va bu boradagi islohotlarni amalga oshirish jarayonlarini tahlil qilish, unga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy omillarning samarali mexanizmini tadqiq etishda ijodiy foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

fuqarolik jamiyatini qurish va shakllantirishda ma'naviyat sohasining ahamiyati va o'rnini tushuntirishga oid to'plangan ilmiy natijalardan fuqarolik jamiyati institutlari samarali foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari, to'plamlar, OAK jurnallarida chop etilgan maqolalar, dissertatsiya xulosalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda o'z aksini topgan fikr-mulohazalar va ilmiy izlanish natijasida ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalardan jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini yanada mukammallashtirish bilan bog'liq mavzuning turli jihatlarini ilmiy o'rganish va tadqiq etish, dissertatsiya va monografiyalar tayyorlashda ijodiy foydalanish mumkin. Dissertatsiya ushbu dolzarb mavzuni yanada yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilishda hali o'rganilmagan muhim jihatlar, turli ma'lumotlar, dalillar va xulosalar bilan to'ldirishda ilmiy-nazariy natija sifatida o'ziga xos xissa qo'shadi.

Amaliy jihatdan, tadqiqotimiz natijalari va dissertatsiya matni davlat tashkilotlari va turli nodavlat muassasalar, fuqarolik institutlari, Respublika

Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning joylardagi bo'limlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bo'yicha xizmatchilar va mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilar uchun muayyan manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga dissertatsiya matnidan oliy ta'lim-tarbiya tizimida, jumladan, "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Ma'naviyatshunoslik", "Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" kabi fanlardan ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quv qo'llanmalar, dasturlar tayyorlashda ijodiy foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining milliy va umuminsoniy tamoyillarini aniqlash jarayonida qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 – 2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatiga bevosita tadbir qilingan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi orasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchytirish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan keng foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 28-iyuldagi 02-22/731-son ma'lumotnomasi). Natijada targ'ibotchilar guruhi a'zolarining fuqarolik jamiyati va faol fuqarolik pozitsiyasini aholi ongiga singdirish bo'yicha nazariy bilimlari yanada mustahkamlandi.

Shuningdek, dissertatsiyaning tayanch atamasi sifatida "fuqarolik jamiyati", "fuqarolik jamiyati instituti" va "ma'naviy-ma'rifiy faoliyat" tushunchalari ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyati va namoyon bo'lishidagi o'zgaruvchanligi, intensivligi va innovatsion xususiyatlariga oid taklif, tavsiya hamda xulosalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar targ'iboti 9 bandi "Yangi O'zbekiston xalqparvar davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyatini targ'ib qilish borasidagi ustuvor vazifalar" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan keng foydalanilgan. (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 31-avgustdagi 352-son ma'lumotnomasi). Natijada targ'ibot tadbirlari davomida aholining, ayniqsa, yoshlarning fuqarolik jamiyatida ma'naviy-ma'rifiy omillarning ahamiyatiga oid bilimlarini yanada kengayishiga erishilgan;

O'zbekistonda fuqarollik jamiyatini barpo etish va ma'naviy taraqqiyot tadrijini tahlil qilish hamda bu boradagi umumiy qonuniyatlarni o'rganish asosida fuqarolik jamiyati institutlarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyat sohasidagi o'zgarishlar dialektikasi va uning namoyon bo'lish mexanizmining o'ziga xos jihatlari oid xulosa, taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ilmiy va targ'ibot faoliyatida shu bilan birga jamiyat tomonidan chop etilayotgan turli adabiyotlar, ilmiy-ommabop materiallarni tayyorlashda keng foydalanilgan.

(O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining 2023-yil 22-avgustdagi 11-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosa va takliflar O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan chop etilgan materiallarning ilmiy faktlar bilan boyishiga xizmat qilgan;

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos ma’naviy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va konstruktiv tendensiyalarini tadqiq qilish natijalariga tayangan holda bu borada muhim natijalariga sabab bo‘layotgan siyosiy omillar va ijtimoiy tamoyillar samarasiga oid ilmiy tahlillardan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining ilmiy va pedagogik faoliyatida keng foydalanildi. (Respublika Badiiy akademiyasining 2024-yil 15 apreldagi 05-39/43-491 sonli-ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosa va takliflar tinglovchilarning fuqarolik jamiyatiga oid nazariy dunyoqarashlarini yanada o‘stirishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, ettita paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, ob’yekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar batafsil keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik jamiyati institutlarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati omillari va tamoyillarini falsafiy o‘rganish masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida “fuqarolik jamiyati”, “fuqarolik jamiyati institutlari”, “ma’naviy-ma’rifiy faoliyat” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyati hamda O‘zbekistonning Yangilanishi jarayonida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda adolatli davlat g‘oyasining ma’naviy omillari va tamoyillari tahlil etilgan.

Biz bilamizki, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans miqyosiga ko‘ra katta mazmun va serqirra mohiyatga ega tushunchalardir. Ularni reallikka aylantirishning imkoniyatlari har birimizda, ongu-tafakkurimizda, azmu-qarorimizda zarrama-zarra joylashgan. Bu jihatdan, jamiyatimizning bugungi qiyofasini belgilaydigan qonuniyatlar, uning tuzilishi va taraqqiyot tamoyillari, bu

boradagi barcha faoliyat mezonlari “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da aniq-tiniq o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor munosabatlariga asoslangan ochiq fuqarolik jamiyati qurish yo‘lini tanladi va Respublika birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konseptual tamoyil asosida jamiyat hayotini yangilashga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Fuqarolik jamiyatining huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy asoslari yaratildi. Birinchi Prezidenti I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratgan edi. U “Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat”⁶, deb ta’kidlagan so‘zlari fikrimizning tasdig‘idir.

Bizga ma’lumki, Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan, davlat hokimiyati organlari ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, inson omili va insoniy munosabatlar chuqur ma’naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin fuqarolik jamiyatidir⁷.

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlangan fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish zaruriyati xorijiy tajribalarni yanada kengroq o‘rganishni, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini ilmiy tadqiq etishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘ydi. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasining mazmun-maohiyatini o‘rganish fuqarolik jamiyatini tadqiq etish bilan amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar fuqarolik jamiyati falsafa, tarix, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, jamiyatshunoslik kabi ijtimoiy fanlar doirasida o‘rganilib, turli xil konsepsiyalar yaratilgan. Ma’lumki, fuqarolik jamiyati tushunchasi insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlaridanoq “ideal davlat”, “ideal jamiyat”, “ideal shoh” tushunchalari negizida shakllana boshlagan.

“Fuqarolik jamiyati” atamasi alohida tushuncha sifatida ilk bor Aristotel tomonidan ilmiy va siyosiy muomalaga kiritilgan. Qadimgi yunon faylasufi fuqarolik jamiyatini “siyosiy qurilishning ma’lum shakli orqali bir-birlari bilan bog‘langan erkin va teng huquqli fuqarolar uyushmasi”⁸ sifatida tavsiflagan edi. O‘rta asrlarga kelib davlat boshqaruvi tizimida bir qancha o‘zgarishlar, yangiliklar va uslublar yuzaga kela boshlagan. Feodal tuzumga o‘tgan davlarda davlat va jamiyat boshqaruvining yangi prinsiplari va modellari shakllandi. Yangi davrning eng muhim siyosiy hodisalaridan biri bo‘lgan “fuqarolik jamiyati” g‘oyasi o‘z tadrijida bir qancha konsepsiya va talqinlarni vujudga keltirdi. Biroq, u hamisha

⁶ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 331.

⁷ Do‘stjonov T., Hasanov S. O‘zbekiston demokratik taraqqiyot yo‘lida. – Toshkent: Toshkent Moliya instituti, 2004. – B. 6.; Quldoshev A. Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 8.

⁸ Аристотель. Политика. –Москва: Полиздат, 1980. – С. 18.

“davlat” hodisasiga nisbatan qarama-qarshi qo‘yilgan. Fuqarolik jamiyati XX asr boshida inqilobiy tajovuz qilayotgan davlat uchun qalqon vazifasini bajargan, XX asr yakunida esa fuqarolik jamiyati shaxs erkinligini davlat nazoratidan himoya qilish omiliga aylandi. Mazkur asrda fuqarolik jamiyatining transformatsiyasi shu tarzda kechdi⁹. XXI asrga kelib fuqarolik jamiyati – boshqaruvda xalq va davlatning o‘zaro hamkorlikdagi va uyg‘unlikdagi harakati natijasida shakllanadigan yuksak demokratik omillarni ifodalovchi tushunchaga aylandi.

Fuqarolik jamiyatini amaliy tarzda xarakterlovchi tuzilmalar – fuqarolik jamiyati institutlaridir. Aynan mazkur institutlarining faoliyati mavjud fuqarolik jamiyatining demokratlik darajasini belgilab beradi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish, turli qatlamlar, guruhlarining siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ularni qondirishning ahamiyati fuqarolik jamiyati takomillashib borgani sayin yanada kuchaydi¹⁰. Bundan anglash mumkinki, fuqarolik jamiyati va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro dialektik aloqadorlikda takomillashib boradi.

Tadqiqotlarni umumlashtirgan holda fuqarolik jamiyati institutlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: siyosiy partiyalar; kasaba uyushmalari; fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (mahallalar); ommaviy axborot vositalari (OAV); diniy birlashmalar; ijodiy uyushmalar; jamoat birlashmalari, jamg‘armalar (fondlar); ilmiy muassasalar; nodavlat fondlar, notijorat muassasalar, yuridik shaxslarning uyushmalari (assotsiatsiyalari) shaklida tuzilib, har xil faoliyat turlirini amalga oshiruvchi, jamiyat uchun keng doiradagi xizmatlarni ado etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari; milliy-madaniy markazlar; ijtimoiy foydali vazifalarni bajarishga safarbar boshqa tashkilotlar (masalan, ijtimoiy harakatlar) va tashabbuskor guruhlar. Fuqarolik jamiyati institutlarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviylik va ma’rifiylik fuqarolik jamiyati qurishning asosiy shartlaridan biridir.

Insonlarning jamiyatlarga uyushib yashashini, kishilarning o‘zaro hamkorligi, jamiyat hayotining barqarorligi va farovonligini ta’minlashning ichki manbai ham ma’naviylik, ham ma’rifiylikdir. Shu o‘rinda “ma’naviyat”, “ma’rifat” hamda “ma’naviy-ma’rifiy faoliyat” tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Izohli lug‘atlardagi ta’rifga ko‘ra ma’naviyat (arabcha ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Ya’ni, ma’naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga etaklovchi, undovchi imkoniyat¹¹. Ma’rifat esa (arabcha – bilish, bilim, ma’lumot, tanish, tanishish) – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma’lumotlar, ta’lim-tarbiya va maorif tizimi majmuini ifodalovchi tushunchadir. Ma’rifat ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaviy jarayondir.

⁹ Баранов П.П. Правосознание и правовоспитание. // Общая теория права. – Н.Новгород, 1993. – С. 74.

¹⁰ Толибов И. Фуқаролик жамияти: тушунчаси, институтлари, асосий принциплари ва функциялари. – Тошкент, 2008. – Б. 24.

¹¹ Рахмонова G.Sh. Ма’naviyat-jamiyat rivojlanishining muhim omili. // Экономика и социум, № 10 (101)-1, 2022. – В. 158.

Faoliyat esa harakatchanlik, ta'sirchanlik, samaradorlik. Biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat¹². U kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biridir. Faoliyatning asosiy xususiyati shundan iboratki, u faollik manbai bo'lgan ehtiyoj sifatida yuzaga chiqqan holda, faollikning yo'naltiruvchisi hisoblangan anglanilgan maqsad bilan farqlanadi.

“Ma'naviyat”, “ma'rifat”, “faoliyat” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda “ma'naviy-ma'rifiy faoliyat” tushunchasini tashkil qiladi. “Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat” tushunchasini “ma'naviy-ma'rifiy ishlar” tushunchasi bilan ham izohlash mumkin. Falsafiy lug'atlarda keltirilishicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar – keng ommani ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushunchadir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni, maqsad-muddalari har bir zamon va makonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy xususiyatlariga chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy-ma'rifiy faoliyati jamiyatni modernizatsiyalash yo'lida insonlar ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash, jamiyatda qonun ustuvorligi va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, ilmu ma'rifatni rivojlantirish kabi ko'plab vazifalarni amalga oshiradi.

Bugun Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Bu davrda “inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Shu munosabat bilan milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda “shaxs – jamiyat – davlat” tamoyilini mustahkamlash kerak. Zero, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o'zgartirilmoqda¹³.

Albatta, adolatparvar davlat hayotimizda ba'zan uchrab turadigan ayrim adolatsizlik ko'rinishlari bilan kelisha olmaydi. Bunday kamchiliklarga barham berishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv idoralarining adolat va qonun ustuvorligi muhitini joriy etish borasida yaqin hamkorlikda ish olib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Prezident tomonidan ilgari surilgan va izchil amalga oshirilayotgan “Inson – jamiyat – davlat” g'oyasi adolatparvarlik tamoyilini barcha sohadagi faoliyatimizning bosh mezoniga aylantirishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy omillarning Yangi O'zbekistonda rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonidagi o'rni va ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida yuksak ma'naviyat va adolatparvarlik tamoyillarining Yangi O'zbekiston fuqarolik jamiyati rivojlanishiga ta'siri hamda insonparvar jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omillar va tamoyillar dialektikasi tadqiq etilgan.

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 326.

¹³ Nabiyeв B. Social factors of ensuring society stability in the development strategy of the New Uzbekistan // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), may, 2023. – B. 353.

Ma'rifatli jamiyat yaratishga kirishar ekanmiz, avvalo, ta'lim tizimini takomillashtirish, bor e'tiborimizni farzadlarimizning zamonaviy ilmlarni egallab, barkamol insonlar bo'lib etishishiga qaratish lozim. Bilim va ma'rifat yurtimiz tinchligiga rahna solmoqchi bo'layotgan g'arazli kimsalarga qarshi kurashning eng ishonchli qurolidir¹⁴. Ushbu jarayonning davomiyligini ta'minlash maqsadida yaratilgan Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning harakatlantiruvchi kuchlari va rivojlanish omillarini belgilaydigan faoliyat dasturiga aylandi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, yuksak ma'naviyat va adolatparvarlik tamoyillariga asoslangan fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda quyidagi ustuvor vazifalarga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim: zamonaviy menejment usullari va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish; Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qoidalarining to'liq va samarali amalga oshirishi; hukumat, davlat institutlari faoliyatining samaradorligi, davlat xizmatlarining sifati va tezkorligini ta'minlash; aholiga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini yanada kengaytirish; innovatsion va texnologik rivojlanishni ta'minlash; iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirlarni qisqartirish va bozor mexanizmlaridan keng foydalanish; hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirish; davlat boshqaruvi tizimining hududlar va sohalar bo'yicha samarali va sifatli faoliyat yuritishi borasida mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish. Bularning barchasi Yangi O'zbekistonga mos samarali va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va takomillashuvi uchun mustahkam zamin yaratilishi lozimligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda “Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil mamlakatimizni rivojlantirish va Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar va OAVni qo'llab-quvvatlashda insonparvarlik g'oyalari asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jihatdan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash samarali boshqaruvni amalga oshirishdagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Insoniyat tarixida kishilar orasidagi teng huquqlilikning buzilishiga, o'zaro ziddiyatlarga sabab bo'luvchi omillardan biri bu turli din vakillarining boshqa dinga e'tiqod va amal qiluvchilarga diniy ayirmachilik asosida qarashi, o'z diniga bo'lgan tarafkashlik tuyg'usi, o'zga dindagi kishilarga boshqacha nazar bilan qarashlaridir. Mana shunday qarashlar oqibatida bugun dunyoning turli davlatlarida har xil nizo va qarama-qarshiliklar yuzaga kelayotir. Diniy bag'rikenglik aynan mana shu hodisalarning oldini olishda juda muhim sanaladi¹⁵. Shuningdek, insonparvar jamiyat yaratish uchun turli millat vakillari uyushqoqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi milliy madaniy markazlarning ham o'rni yuqori albatta.

¹⁴ Azizxo'jayev A.A. Mustaqil O'zbekistonda davlat qurilishining dolzarb muammolari. // Muloqot, 2018, 3-son. –B. 13.

¹⁵ Khosilmurodov I. The importance of the ideas of tolerance and interethnic harmony in the social life of Uzbekistan. // Society and innovations, Special Issue-11, 2021. – P. 18.

Insonparvar davlat yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan barcha ishlarning eng muhim natijasi, avvalo, mamlakatimizni isloh etish va Yangilashning hal qiluvchi kuchi bo'lmish butun aholi, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy kamoloti, ezgu g'oyalarga ishonchi, islohotlar siyosatini har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan ta'lim tizimida va undan tashqaridagi sohalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish umumdavlat siyosati miqyosidagi vazifaga aylanganining sababi ham shunda.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston jamiyatining yangi ma’naviy qiyofasini yaratishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini kuchaytirish mexanizmi”** deb nomlangan uchinchi bobida Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojining yangi bosqichidagi islohotlarning ma'naviy va ma'rifiy yuksalish omili, Yangi O'zbekistonda aholi huquqiy madaniyati va ma'naviyatiga oid qadriyatlarini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini hamda fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining amaliy tamoyillarini optimallashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Mamlakat mustaqilligining muhim omili sifatida milliy tiklanish jarayonida davlat odamlarni ijtimoiylashtirish vazifasini o'z qo'lidan chiqarib tashlashi mumkin emas. Shu o'rinda davlat o'zgarish va islohotlarning bosh faoli va rag'batlantiruvchisi sifatida o'zining ish uslubini ko'rsatmoqda. Masalan, davlat bu kabi siyosat ustuvorligini “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Mamlakat Konstitutsiyasida suiste'mollikdan himoya qilishning kafolatlari belgilangan. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga yordam berishning bir nechta yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Davlatning tarbiyaga qaratilgan hatti-harakatlari dunyoviy va diniy omillarga asoslanishi zarur. Ushbu jarayonning natijadorligi mustaqil O'zbekistonda yangi milliy qadriyatlarga, an'analarga asoslanuvchi, yangicha metodlarni yaratuvchi, Vatanimiz ravnaqi yo'lida munosib prinsiplarni izlab topuvchi rivojlanayotgan yangi tarbiya usulining izchilliga va ochiqligiga mutanosibdir.

Barchamiz bilamizki, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida va shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ishlar olib borishdir. Vatanimizda sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir. Demak, fuqarolik jamiyatida komil inson tarbiyasi o'ta muhim va jiddiy masaladir¹⁶. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir”¹⁷.

Bugun fuqarolik jamiyati institutlari bor kuch va imkoniyatlarini ishga solgan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqish uchun harakat qilishlari kerak. Fuqarolik jamiyati


¹⁶ Quldoshev A. Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 32.

¹⁷ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 267.

qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch-quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligini ta'minlaydigan narsa "milliy ruhiyat"dir. Fuqarolik jamiyati milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa, o'z mohiyatini yo'qotishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, bugungi kundagi mavjud fuqarolik jamiyati institutlarining aholi ayniqsa yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi rolini aniqlash, yoshlarning fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlariga oid bilim darajasini o'rganish hamda yoshlar ehtiyojlari va muammolaridan kelib chiqib qanday yo'nalishda faoliyat olib boruvchi fuqarolik jamiyati institutlari zarur ekanligini aniqlash maqsadida "Yoshlar qiziqishlari va ma'naviy tarbiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni" mavzusida sotisologik tadqiqot ham o'tkazildi. Ijtimoiy so'rovnomada TIQXMMI hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti talabalaridan mingdan ziyod respondentlar ishtirok etishdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra respondentlarning qariyb 50 foizi siyosiy partiyalardan birining, Yoshlar ittifoqi yoki volontyorlik guruhlarining a'zolari ekanliklari aniqlangan. (1-rasmga qarang).

6.Siz qaysi fuqarolik jamiyati a'zosiz?



1-rasm. Siz qaysi fuqarolik jamiyati a'zosisiz?

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda mavjud fuqarolik jamiyati institutlari talaba yoshlarning ko'pchiligini a'zo sifatida qamrab olgan hamda talaba yoshlar fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokchilaridir. "Bugungi kunda yoshlar muammolarini samarali hal qilishga ko'maklashuvchi qanday fuqarolik jamiyati institutlari zarur deb hisoblaysiz?" degan savolga ishtirokchilarning 29 foizi yoshlar bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirishga qaratilgan to'garaklar, IT park va Corworking markazlarini ko'paytirish zarur deb javob berishgan. Ishtirokchilarning 28 foizi Yoshlar ma'naviy-madaniy, kitobxonlik, badiiy ijodiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi konsert, teatr va ko'rgazmalar uyishtirish orqali ularni birlashtirish imkonini beruvchi tashkilotlar zarurligini ta'kidlashgan. Yana 18,8 foiz respondentlar ish topishga ko'maklashish, tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashuvchi tashkilotlar zarur deb hisoblashgan. Ishtirokchilarning qolgan qismi ta'lim va tarbiya, kasb-hunar egallashlariga ko'maklashuvchi tashkilotlar zarur deb javob berishgan (2-rasmga qarang).


7. Bugungi kunda yoshlar muammolarini samarali hal qilishga ko'maklashuvchi qanday fuqarolik jamiyati institutlari zarur deb hisoblaysiz?



2-rasm. Qanday fuqarolik jamiyati institutlari zarur?

